

“UzGasTrade” aksiyadorlik
jamiyati boshqaruv raisining
2022 yil “03” sentabr kunidagi
“74”- sonli buyrug‘iga
1-ilova

**“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyati
xodimlarining odob-axloq
QOIDALARI**

Mazkur qoidalar (bundan buyon matnda odob-axloq; qoidalari deb yuritiladi) “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda Jamiyat deb yuritiladi) xodimlarining odob-axloqi, xulq-atvori, o‘z xizmat vazifalariga vijdonan munosabatda bo‘lish va ularni og‘ishmay bajarish tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu odob-axloq qoidalari Jamiyat xodimlarining egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar kasbiy odob-axloqining umumiy prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari yig‘indisidan iborat.

2. Odob-axloq qoidalari Jamiyat xodimlari tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olishga, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga, ularni yuksak huquqiy ongi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy xujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

3. Jamiyat xodimlari hamda ishga kirayotgan har bir shaxs ushbu odob-axloq qoidalari bilan imzo qo‘ydirilgan holda tanishtiriladilar.

4. Jamiyat xodimlari qonun hujjatlari va odob-axloq qoidalari talablariga rioya etishlari shart.

Odob-axloq qoidalariga rioya etish xodimlarning kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

II. Jamiyat xodimlarining xizmatdagi xulq- atvorining asosiy prinsiplari va qoidalari

5. Jamiyat xodimlari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:

-qonuniylik;

-fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

-vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;

-davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;

-adolatlilik, halollik va xolislik;

-manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

6. Jamiyat xodimlari quyidagilarga majbur:
- a) xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari va talablariga qat'iy rioya etish;
 - b) o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;
 - v) yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarish;
 - g) o'z faoliyatini qonun hujjatlarida va ichki hujjatlarda belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;
 - d) o'z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta'siridan mustaqil bo'lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik;
 - e) o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarga barxam berish;
 - o) normativ-huquqiy hujjat va idoraviy hujjatlarda belgilangan cheklashlar va ta'qiqlarga rioya qilish, o'z xizmat vazifalarini og'ishmay bajarish;
 - j) o'z xizmat faoliyatiga biror-bir ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga barxam berish;
 - z) xizmat kompyuterida ish faoliyatiga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlar (diniy ekstremistik va terroristik guruh faoliyatiga oid varaqalar, da'vatlar va x-k.) tayyorlamaslik va saqlamaslik, turli o'yinlar o'ynamaslik;
 - i) ishda yuqori professional bo'lishga bor kuchini sarflash, qo'yilgan vazifalarni hal etishda qulay va tejamkor usullarni qo'llash, o'ziga biriktirilgan davlat mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, undan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish;
 - y) jismoniy va yuridik shaxslarning har qanday shakldagi (yozma, og'zaki, elektron) va turdagi (ariza, shikoyat va taklif) murojaatlarini ko'rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo'l qo'ymaslik, belgilangan muddatlarda ular bo'yicha zarur choralarni ko'rish;
 - k) O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlarini va an'alarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko'maklashish;
 - l) o'zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek o'z obrusiga yoki jamiyatning nufuziga zarar yetkazishga qodir bo'lgan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik;
 - m) xizmat mavqeyidan jamiyat, davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta'sir ko'rsatish uchun foydalanmaslik;
 - n) jamiyatda xabarlarini va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan

qoidalariga rioya etish.

o) davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik.

7. Siyosiy, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik, shuningdek shaxsiy vajlar va boshqa sub'ektiv sabablar jamiyat xodimlarining qonun hujjatlari talablarini va odob-axloq qoidalarini buzishi uchun asos bo'la olmaydi.

8. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Jamiyat xodimlariga o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslardan boshqacha naf ko'rish taqiqlanadi.

9. Jamiyat xodimlari korrupsiya holatlariga qarshi kurashishi va ularning profilaktikasiga faol ko'maklashishi shart.

Jamiyat xodimlari o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarni ularni huquqbuzarliklar sodir etishga og'dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to'g'risida, shuningdek boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lgan har qanday holatlari haqida xabardor qilishi shart.

Jamiyat rahbariyati o'ziga bo'ysunuvchi xodimlar tomonidan qonun hujjatlarining buzilishi faktlari to'g'risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi uchun, xuddi shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun ishdan bo'shatilishiga yoki boshqacha shaklda ta'qib qilinishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlashi kerak.

10. Jamiyat xodimlari kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotning saqlanishini va maxfiylikni ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rishlari shart, ularning oshkor etilganligi uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Xodim xizmat faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari, telekommunikasiya tarmoqlari, internet butunjahon axborot tarmog'i orqali yoxud boshqacha usullarda tarqatmasligi lozim, noqonuniy xatti-harakatlar haqidagi ma'lumotlar bundan mustasno.

Agar boshqarma va bo'lim rahbari yoki boshqa mansabdor shaxs tomonidan xodimning xizmat vazifasiga kirmaydigan topshiriq berilganda, har qanday bosim va ish faoliyatiga to'sqinlik qilinganda, mansab vakolatini suiiste'mol qilish bilan bog'liq boshqa holat sodir etilganda, xodim bu haqda darhol jamiyatning Kompleans nazorat bo'limini yoki rahbariyatni xabardor qilishi shart.

11. Jamiyat rahbariyati o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o'rnatilgan bo'lishi, tarkibiy tarmoqlarida ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashishi lozim, ularga bo'ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Jamiyat rahbariyati kadrlarni qarindoshlik, xamshaxarlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak. U guruhbozlik, maxalliychilik, favoritizm ko'rinishlarining, shuningdek o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olishi

lozim.

Jamiyat rahbariyati:

- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi;
- korrupsiyaning oldini olish choralari ko'rishi;
- xodimlarni samarali boshqarishi;
- o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi shart.

Jamiyat rahbariyati o'ziga bo'ysunuvchi, xizmatdagi xulq-atvor prinsiplari va qoidalarini buzayotgan xodimlarning xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo'l qo'yilmasligi choralari ko'rmaganligi uchun javob beradi.

12. Jamiyat xodimlar o'zlarining xulq-atvori bilan jamoada va boshqa davlat xizmatchilari bilan o'zaro ishchanlik va amaliy hamkorlik qaror topishiga da'vat etilgan.

Jamiyat xodimlari xushmuomalali, iltifotli, odobli, e'tiborli, tashabbuskor, o'zgarishlarga tezlikda va oqilona moslasha olishi, bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlashi, ish joyida xayrixoxlik muhitini yaratishi, shaxsiy va kasbiy munosabatlarni farqlashi, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo'lishi, ularni hurmat qilishi shart. Ular o'ziga bo'ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan qo'pollik qilmasligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatish holatlariga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Jamiyat xodimlari xizmat vazifalarini bajarish chog'ida ish sharoitlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog'liq holda tashqi ko'rinishi va kiyinish madaniyatiga rioya qilishi, fuqarolarning jamiyatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga yordam berishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi, shuningdek, vazminligi, rasmiyliligi va tartibliligi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

13. Jamiyat xodimlari xizmatdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmasligi kerak.

III. Manfaatlar to'qnashuvi

14. Jamiyat xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'yilmasliklari kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi Jamiyat xodimlarining shaxsiy manfaatlari ularning o'z xizmat vazifalarini xolisona va beg'araz bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarda paydo bo'ladi.

Jamiyat xodimlarining shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o'zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo'ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko'rish yoki afzalliklarga ega

bo'lishni o'z ichiga oladi.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda Jamiyat xodimlari o'z rahbariyatini xabardor qilishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotni olgan Jamiyat rahbariyati uni tartibga keltirish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

15. Jamiyat xodimlari o'zlarining o'z xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga yoki ularga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan faoliyatni amalga oshirmasligi kerak.

Jamiyat xodimlari har qanday holatda ham o'z xizmat mavqeyidan mumkin bo'lmagan shaxsiy foyda olishi mumkin emas.

16. Jamiyat xodimlari lavozimga tayinlanayotganda va xizmat vazifalarini bajarayotganda o'zining xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligining mavjudligi yoki mavjud bo'lishi imkoniyati to'g'risida ma'lum qilishi shart.

IV. Odob-axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

17. Jamiyat xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin.

18. Jamiyat xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi attestatsiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

19. Ushbu odob-axloq qoidalari normalarining buzilishlari odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha intizomiy yoki boshqacha tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xulosa chiqariladi.

Odob-axloq komissiyasi tomonidan jamiyat boshqaruv raisiga xodim tomonidan odob-axloq qoidalari buzilganligi va uni javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritiladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda, odob-axloq komissiyasi xodimga nisbatan odob-axloq qoidalarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Jamiyat xodimlari o'zlari yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

V. Yakuniy qoidalar

20. Odob-axloq qoidalarida ko'rsatilmagan holatlar yuzasidan vujudga keladigan muammoli vaziyatlar va masalalar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

21. Odob-axloq qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uni yangi tahririni tasdiqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.